

KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSIYALARNING O'RNI

Matkarimova Zuxraxon

Buloqbooshi tumani 2 son politexnikumi
biznes asoslari fani o'qituvchisi.

Annotatsiya: Mazkur maqolada kichik biznes va tadbirkorlik muhiti hamda unga ta'sir etuvchi omillar va kichik biznes subyektlarining rivojlanishida innovatsiyalarning ahamiyati o'rganilgan. Ushbu ishda, kichik biznesning iqtisodiy o'sish va yangi ish o'rinlari yaratishdagi roli hamda innovatsion yondashuvlardan samarali foydalanish imkoniyatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: texnologik innovatsiyalar, boshqaruv innovatsiyalari, kichik biznes, innovatsiyalar, raqobatbardoshlik, iqtisodiy o'sish, innovatsion rivojlanish, mahsulot innovatsiyalari.

Аннотация: В статье рассматривается среда малого бизнеса и предпринимательства, факторы, влияющие на нее, а также значение инноваций в развитии малого бизнеса. В данной работе подчеркивается роль малого бизнеса в экономическом росте и создании рабочих мест, а также возможности эффективного использования инновационных подходов.

Ключевые слова: технологические инновации, управленческие инновации, малый бизнес, инновации, конкурентоспособность, экономический рост, инновационное развитие, продуктовые инновации.

Abstract: This article examines the environment for small business and entrepreneurship, the factors influencing it, and the importance of innovation in the development of small business entities. This work highlights the role of small business in economic growth and job creation, as well as the possibilities of effective use of innovative approaches.

Keywords: technological innovations, management innovations, small business, innovations, competitiveness, economic growth, innovative development, product innovations.

KIRISH

Har qanday tadbirkorlik ma'lum bir hududda: mamlakat, viloyat, shaharyoki qishloq miqyosida olib boriladi. Tadbirkorlik faoliyatini samarali olib borish uchun ma'lum bir ishchi muhiti bo'lishi kerak. Bunday muhit ayrim hududlar miqyosida mujassamlanib, o'zida ishbilarmonlikni amalga oshirishni mujassamlantirgan. Umumiy holda tadbirkorlik muhiti asosan quyidagi to'rt omil: huquqiy, siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy omillarning o'zaro bog'liqligi natijasida amalga oshiriladi.

Ular ijobiy yoki rag'batlantirish ko'rinishida ham shakllanishi mumkin. Ushbu holda mamlakat yoki mintaqadagi mavjud shartsharoitlar tadbirkorlik faoliyatini olib borish uchun mos bo'ladi.

Chunki, bunday muhit tadbirkorga amalga oshirayotgan ishlarining natijalari qanday bo'lishini oldindan ko'ra bilishiga keng imkoniyat tug'diradi. Tadbirkorning o'z ishi natijalarini oldindan ko'ra bilishi tavakkallik tushunchasiga teskari holda ifoda etiladi. Agar tadbirkor ma'lum bir muhitda tavakkalchilik asosida faoliyat yuritayotgan bo'lsa, u holda u o'zgaruvchanlik, beqarorlik, tavakkalchilik bilan tavsiflanadi.

Bunday muhit yuqorida keltirilgan ijobiy muhitga to'g'ri kelmaydi. Amalda ko'p hollarda tadbirkorlik muhitining ma'lum bir omili tadbirkorning ish natijalariga asosiy ta'sir ko'rsatadi, deb bo'lmaydi. Chunki tadbirkorni ko'proq tadbirkorlik muhitini belgilovchi omillarning o'zaro bog'liqligi qiziqtiradi.

MUHOKAMA

Bugungi globallashuv sharoitida kichik biznes subyektlarining samarali faoliyat yuritishi innovatsion jarayonlarga bog'liq bo'lib qoldi. Innovatsiyalar nafaqat mahsulot va xizmatlar sifatini oshirish, balki raqobatbardoshlikni kuchaytirish, yangi bozorlarni o'zlashtirish va iqtisodiy o'sishga erishish uchun ham muhim omildir. Shu sababli, kichik biznes subyektlarining innovatsion faolligini oshirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Kichik biznes – bozor iqtisodiyotining asosi. Kichik biznes obyektiv ravishda zamonaviy bozor iqtisodiyotining nisbatan mustaqil bo‘limi sifatida mavjud bo‘lib, turli xil va turli hajmdagi korxonalar, jumladan, kichik korxonalar mavjudligi va o‘zaro bog‘liqligi bilan ajralib turadi. Katta biznes mamlakat iqtisodiyotining asosiy ehtiyojlarini ta‘minlasa, kichik korxonalar bozorda o‘z o‘rnini egallaydi va mahalliy talab yoki maxsus mahsulotlar va xizmatlar, shu jumladan, innovatsion sohada maxsus ehtiyojlarni qondiradi. Ijtimoiy iqtisodiyotda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ijtimoiy taraqqiyotning muhim muammolarini hal qilish uchun iqtisodiy asos yaratishning hal qiluvchi omilidir.

Kichik tadbirkorlik iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi va aholi farovonligini oshirishda muhim o‘rin tutadi. U aholi bandligini kengaytirish va daromadlarini oshirish uchun imkoniyatlar yaratadi, ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga hissa qo‘shadi hamda jamiyatlardagi ehtimoliy qarama-qarshiliklarning oldini olishda muhim rol o‘ynaydi. Shu bilan birga, kichik biznes raqobatni kuchaytiradi, iste‘molchilar uchun sifatli mahsulot va xizmatlarni raqobatbardosh narxlarda taklif etishga xizmat qiladi. Bu esa, o‘z navbatida, sog‘liqni saqlash va ta‘lim kabi muhim sohalarda ko‘rsatiladigan xizmatlar sifatini oshirishga yordam beradi. Shu jumladan Respublikamiz YaIMda ham kichik biznesning ulushi tobora oshib bormoqda.

Bugungi kunda kichik biznes yangi ish o‘rinlari yaratish, innovatsion yechimlarni tatbiq etish va iqtisodiy o‘sishni ta‘minlashda yetakchi omil bo‘lib kelmoqda. Innovatsion rivojlanish jarayonida turli omillar kichik biznesning o‘sishiga ta‘sir ko‘rsatmoqda. Shu nuqtayi nazardan, avvalo, kichik biznes subyektlarining innovatsiyaga bo‘lgan ehtiyoji o‘rganib chiqish zarur hisoblanadi.

Kichik biznes korxonalari yirik kompaniyalarga nisbatan moslashuvchanlik va tezkor qaror qabul qilish qobiliyatiga ega. Shu bilan birga, ularning moliyaviy va resurs imkoniyatlari cheklanganligi innovatsiyalarni joriy etishda muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Biroq, kichik biznes subyektlari quyidagi yo‘nalishlarda innovatsion yondashuvlardan samarali foydalanishlari mumkin:

Mahsulot innovatsiyalari – yangi mahsulotlarni ishlab chiqish yoki mavjud mahsulotlarni yaxshilash;

Texnologik innovatsiyalar – ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish va yangi texnologiyalarni qo'llash;

Boshqaruv innovatsiyalari – biznes jarayonlarini takomillashtirish va raqamli texnologiyalarni joriy etish;

Marketing innovatsiyalari – mijozlarga yangi yondashuvlarni qo'llash va zamonaviy reklama strategiyalarini ishlab chiqish.

Innovatsiyalarning kichik biznes uchun afzalliklari

Innovatsiyalar kichik biznesga quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

1. Raqobatbardoshlikni oshirish – bozorda o'z o'rnini mustahkamlash va mijozlar e'tiborini jalb qilish.
2. Xarajatlarni optimallashtirish – yangi texnologiyalar orqali ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish.
3. Ishlab chiqarish samaradorligini oshirish – avtomatlashtirilgan tizimlar va yangi texnologiyalar orqali mehnat unumdorligini ko'tarish.
4. Bozor imkoniyatlarini kengaytirish – yangi bozor segmentlariga kirish va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.
5. Barqaror rivojlanish – ekologik toza texnologiyalarni joriy etish orqali ijtimoiy va ekologik mas'uliyatni oshirish.

Kichik biznes subyektlarida innovatsiyalarni rivojlantirishda duch kelinadigan muammolar:

Kichik biznes subyektlari innovatsion jarayonlarni joriy etishda bir qator qiyinchiliklarga duch keladi, jumladan:

Moliyaviy resurslarning cheklanganligi – innovatsion faoliyat uchun zarur bo'lgan mablag'larni jalb qilish qiyinligi.

Texnologik infratuzilmaning yetishmovchiligi – zamonaviy texnologiyalarga ega bo'lish uchun zarur shart-sharoitlarning mavjud emasligi.

Innovatsion bilim va tajribaning yetarli emasligi – kadrlarning innovatsion loyihalarni amalga oshirish bo'yicha malakasining pastligi.

Raqobat muhitining yuqori ekani – yirik korxonalar bilan raqobat qilish qiyinligi.

Innovatsion rivojlanishni rag'batlantirish yo'llari:

Kichik biznes subyektlarida innovatsiyalarni keng joriy etish uchun quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirilishi lozim:

1. Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash – subsidiyalar, grantlar va soliq imtiyozlari orqali kichik biznesning innovatsion faoliyatini rag'batlantirish.

2. Ilm-fan va biznes hamkorligini kuchaytirish – ilmiy-tadqiqot institutlari va universitetlar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish.

3. Texnologik innovatsiyalarni joriy etish – zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish.

4. Innovatsion ekotizim yaratish – startaplar va innovatsion klasterlarni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish.

5. Kadrlar salohiyatini oshirish – tadbirkorlar va menejerlarni innovatsion boshqaruv bo'yicha o'qitish.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning innovatsion omili sifatida innovatsion tadbirkorlikning turfa tashkiliy shakllari keng rivojlanmoqda ekan. Shakllarning har xilligi, innovatsion tashkiliy tizim innovatsion faoliyatning asoslarini o'zgartirilgan ko'lamda innovatsiya bilan bog'liq innovatsion loyihalar taklifi doirasini aniqlanadi. Innovatsiyaning tashkiliy shakli yoki innovatsion tashkilotning umumiy yaqinlashuvi alohida korxona sifatida yoki uning bo'limlari, yoki majmuaviy korxona, aniq iearxarik tarkibiy qism va boshqaruv mexanizmi faoliyatini xususiyatini belgilovchisi sifatida ko'rish mumkin, innovatsiyaning zarurligi asoslangan, innovatsion g'oyalar bazasining paydo bo'lishi, innovatsiyani amalga oshirish maqsadi bilan tashkiliy innovatsion jarayonlar va texnologiyani qo'llash va aniqlashni ta'minlaydi. Zamonaviy innovatsion rivojlanish tajribasi innovatsion tadbirkorlik tashkiliy shaklining har xilligi farqlanar ekan. Innovatsion

tadbirkorlik xo'jalik yuritishning alohida ijodkorlik jarayoni bo'lib, uning asosida yangi imkoniyatlarni muntazam izlash, innovatsiyaga yo'naltirilganlik, turli-tuman manbalardan doimiy masalalarni hal etish uchun resurslar izlashni uddalash va ulardan foydalanish demakdir.

Kichik biznes subyektlarida innovatsiyalarni joriy etish zamonaviy iqtisodiyotning asosiy talablaridan biridir. Innovatsion yondashuvlar kichik korxonalarni yanada raqobatbardosh, samarador va barqaror rivojlanishga yo'naltiradi. Davlat va xususiy sektor hamkorligi, ilg'or texnologiyalardan foydalanish va innovatsion madaniyatni shakllantirish orqali kichik biznes subyektlari o'z salohiyatini to'liq namoyon qila oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Musayev Ozodjon Shavkat o'g'li "Kichik biznes subyektlari faoliyatini innovatsion rivojlantirish omillari" nomli maqola Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot jurnali 1025-1030-betlar
2. Гусев А.К., Жеребцов В.И. Малый бизнес и инновации: основные проблемы и пути решения
3. Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик дарслик. Д.С. Қосимова. 2020-й.
4. Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик дарслик. Балтабаев М., Қосимова, Эргашходжаева Ш.Ж., Самадов М. 2015-й.
5. Alijonova Kumushxon "Mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish yo'llari" nomli maqola. Miasto Przyszłości Kielce 2024, Polsha.